O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
rektori G.I.Muxamedov
________________________
«_______»__________2025-yil

# 10.00.02-O‘ZBEK ADABIYOTI IXTISOSLIGI BO‘YICHA OLIY TA'LIMDAN KEYINGI TA'LIM INSITITUTIGA KIRISH UCHUN IXTISOSLIK FANIDAN DASTUR

CHIRCHIQ-2025

# KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 maydagi 304-sonli “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori bilan tasdiqlangan “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta'lim to‘g‘risidagi Nizom”i oliy ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash tizimini jahon standartlari darajasiga ko‘tarish vazifasini kun tartibiga qo‘ydi. 2016 yil 13 maydagi PF-4797 Farmonida aks etganidek, o‘zbek tili va adabiyoti qadimiy va boy tarixga ega bo‘lib, uning shakllanishida mintaqamiz hududida yashagan baqtriylar, so‘g‘diylar, xorazmiylar va boshqa elat va millatlar o‘z ta'sirini ko‘rsatgani haqida qadim ilmiy manbalar dalolat beradi. Qadim turkiy, mumtoz adabiyotimizning Mahmud Koshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Atoyi, Sakkokiy, Lutfiy kabi namoyandalarining xizmati va qoldirgan merosi muhim o‘rin egallaganini qayd etish joiz. O‘zbek adabiy tili, ayniqsa, XIV-XV asrlarda – Amir Temur va temuriylar davrida rivojlanishning yangi, yuksak bosqichiga ko‘tarildi. Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy umumbashariyat madaniy xazinasidan munosib o‘rin olgan o‘lmas asarlarini aynan ona tilimizda bitib, uning shuhratini butun olamga yoydi.

O‘zbek adabiyoti ixtisosligi buyicha tayanch doktoranturaga kirish imtihonining ushbu dasturi yuqoridagi talablardan kelib chiqqan holda tuzildi va taqdim qilingan mavzular, nazorat savollari tadqiqotchilar bilim saviyasini aniqlashga etarli kafolatdir.

Dastur talabgorlarning yuqori malakali mutaxassis bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan muhim manbalarni o‘z ichiga oladi.

## O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi (qadimgi davrlardan XV asrgacha)

**Eng qadimgi og‘zaki adabiy yodgorliklar, ularning manbalari.** Yunon tarixchilarining asarlarida Markaziy Osiyo mif va afsonalariga oid ma'lumotlar. “Avesto” adabiy manba sifatida. “Avesto”ning o‘rganilishi tarixidan.

**O‘rxun-Enasoy bitiktoshlari adabiy manba sifatida.** O‘rxun-Enasoy yodgorliklarining janr xususiyatlari. To‘nyuquq bitigi. Unda shaxs va millat erki.

Mahmud Koshg‘ariy va uning “Devonu lug‘oti-t-turk” asaridagi afsona va xalq qo‘shiqlari. Qadimgi turk moniylik adabiyoti. Budda mazmunidagi turkiy adabiyot. “Oltin yoruq” dostoni va unda ko‘tarilgan masalalar.

**Yusuf Xos Hojib hayoti va ijodi.** “Qutadg‘u bilig” hamda ijtimoiy-siyosiy va falsafiy masalalar. Dostonda axloqiy va estetik qarashlar. Dostonning janr xususiyatlari: masnaviy, qasida, to‘rtlik va g‘azal unsurlari. Asarning ahamiyati.

**Ahmad Yugnakiy hayoti va ijodining manbalari.** Adib hayoti va ijodining o‘rganilishi tarixi. Asarda qo‘llanilgan janrlar.

**Ahmad Yassaviy.** "Devoni hikmat" va hikmatnavislik an'anasi. "Devoni hikmat"ning mavzu ko'lami va ma'rifiy ahamiyati.

**Nosiriddin Rabg'uziy** hayoti va ijodi. Adib ijodining o'rganilish tarixi. "Qisasi Rabg'uziy" ("Qissasu-l-anbiyo") – o'zbek badiiy nasrining ilk namunasi sifatida.

**Noma** janri va uning takomil bosqichlari. Munozara janri. Temuriylar davrida adabiyotshunoslikning fan sifatidagi taraqqiyoti. Nizomiy, Dehlaviy, Sa'diy va Hofiz asarlarining tarjimalari.

**Qutb** hayoti va ijodi. "Xisrav va Shirin" dostonining yaratilish tarixi, nusxalari.

**Sayfi Saroyi** hayoti va ijodi. "Gulistoni bi-t-turkiy" asarining tarkibi. Asardagi asosiy g'oya, yoritilgan masalalar.

**Haydar Xorazmiy ijodi.** Haydar Xorazmiy hayoti va ijodining manbalari. "Maxzanu-l-asror" dostoni va Nizomiy ijodi. Dostonning kompozision qurilishi va syujeti.

**Atoyi** ijodiy merosining o'rganilishi tarixidan. Atoyining lirik merosi.

**Sakkokiy** hayoti va ijodining o'rganilish tarixi. She'riyatining janr xususiyatlari va mavzu ko'lami.

**Gadoiy** hayoti va ijodining o'rganilish tarixi. Gadoiyning ijodiy merosi.

**Husayniy** lirikasining badiiy xususiyatlari. Alisher Navoiy Husayn Boyqaro haqida.

**Sayyid Qosimiyning** "Majma'u-l-axbor" dostoni. Shoirning "Gulshani roz", "Haqiqatnoma", "Ilohiynoma" dostonlaridagi ijtimoiy-siyosiy va axloqiy -ta'limiy masalalar.

**Lutfiyning** ijodiy faoliyati. Lutfiy va Navoiy. Lutfiy lirikasining janr xususiyatlari.

**Alisher Navoiy.** Hayoti va ijodiy faoliyati. Shoir hayoti va ijodining manbalari. "Xazoyinu-l-maoniy" – lirik qomus sifatida: tuzilishi va janr xususiyatlari. Mavzular doirasi, g'oyalar va timsollar tizimi.

**"Xamsa".** "Hayratu-l-abror" dostoni. Dostonning tuzilishi, janr xususiyatlari. "Farhod va Shirin" dostonida insonparvarlik g'oyalari, orzu-umidlari Farhod siymosida. "Layli va Majnun" dostonida pok va yuksak muhabbat ifodasi. Undagi bosh qahramonlar hayoti. Dostonning g'oyaviy mundarijasi, timsollar olami. "Sab'ai sayyor". Shoh Bahrom timsoliga xos fazilat va ziddiyatlar. Dilorom – iste'dodli san'atkor, vafodor yor timsoli. "Saddi Iskandariy" – falsafiy-ta'limiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy asar. Navoiyning adolat timsoli.

**"Lisonu-t-tayr"** falsafiy-tasavvufiy doston sifatida. Navoiyning tasavvuf falsafasi va axloqiga xos munosabati. Simurg' – najot timsoli.

**"Mahbubu-l-qulub" asari.** Asarning badiiy xususiyatlari. "Xamsatu-l-mutahayyiriyin" asarining mundarijasi. Asarda Jomiy timsoli. "Holoti Sayyid Hasan Ardasher", "Holoti Pahlavon Muhammad" asarlarida tarixiy shaxslar talqini.

**Adabiyotshunoslik asarlari:** “Majolisu-n-nafois” tazkirasida Alisher Navoiyning adabiy-estetik qarashlari talqini. “Mezon ul-avzon”.

**Bobur.** Ijodkor biografiyasi va adabiy merosining o‘rganilishi. Shoir lirikasining janr xususiyatlari. “Boburnoma” – badiiy-memuar asar sifatida. Boburning ilmiy merosi: “Risolai aruz”, “Mubayyin” asarlari.

**Mashrab** ijodiy merosi. Mashrabshunoslik tarixidan. Mashrab lirikasi. “Qissai Mashrab” asarining shoir biografiyasi va adabiy merosini o‘rganishdagi o‘rni.

**So‘fi Olloyor.** Ijodkor adabiy merosini o‘rganilishi. “Sabotu-l- ojizin” asarida ma'rifiy masalalar.

**Shermuhammad Munis** adabiy merosi. Ijodkor asarlarining o‘rganilishi. Shoir devonining janrlar tarkibi va badiiyati.

**Ogahiy** biografiyasi va adabiy merosi. Ogahiyshunoslik tadriji. “Ta'viz ul-oshiqin” devoni. Ogahiy – tarixnavis. Ogahiy – tarjimon. Ogahiy ijodida Navoiy an'analari.

**Uvaysiy** hayoti va ijodi. Shoiraning lirik merosi. “Shahzoda Hasan” va “Shahzoda Husayn” dostonlari.

**Nodira** hayoti va ijodi. Shoiraning lirik merosi. Nodiraning badiiy mahorati.

**Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotining xos xususiyatlari.** Bu davr adabiyotining takomil bosqichlari. O‘rganilish tarixi. Yangi o‘zbek she'riyatining yuzaga kelish omillari. Zamonaviy nasrning shakllanishi. Drama janrining yuzaga kelish omillari va dastlabki namunalari. Adabiyot va milliy matbuot. Adabiyot va teatr. Adabiy tanqid shakllanishining ijtimoiy va adabiy-estetik omillari.

**Komil Xorazmiy.** Shoir lirikasining mavzu ko‘lami va badiiyati. Komil Xorazmiy va yangicha ma'rifatparvarlik.

**Feruz** – madaniyat va san'at homiysi. Shoir she'riyatining janr xususiyatlari va mavzu ko‘lami.

**Muqimiy** hayoti va ijodining o‘rganilish tarixi. Shoir lirikasi. Muqimiy hajviyotining xos xususiyatlari. “Sayohatnoma”lari. Muqimiy ijodida maktub janri.

**Furqat** biografiyasi. Furqatshunoslik tadriji. Shoir lirikasi. Furqat she'riyatida rus mustamlakasiga munosabat masalasi. Furqat va jadidchilik. Tasavvuf ta'limotiga oid qarashlari. Furqat manzumalari. Furqatning chet ellardagi faoliyati.

**Ishoqxon Ibrat** adabiy-ilmiy merosining o‘rganilishi. Ibrat – ma'rifatparvar shoir. Ijtimoiy-ma'rifiy faoliyati: “Matbaai Ishoqiya”, “Kutubxonai Ishoqiya”. Ibratning ilmiy asarlari.

**Mahmudxo‘ja Behbudiy** va Turkiston milliy matbuoti. Ijodiy merosi. “Padarkush” pesasi. Publistikasi. Adabiy-estetik qarashlari. Sayohat xotiralari.

**Abdulla Avloniy**. Adabiy merosi. Avloniyning pedagogik asarlari. “Turkiy guliston yoxud axloq” asarining ma'rifiy-axloqiy va pedagogik qarashlar taraqqiyotidagi o‘rni. Avloniy dramalari. “Afg‘on sayohati” asari.

**Tavallo adabiy merosi.** “Ravnaqu-l-islom”dagi she'rlarning mavzu ko‘lami.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida adabiy-ijodiy metodlar. Realizm, soialistik realizm.

**Fitrat dramaturgiyasi.** She'riyati. Dramalari. "Abulfayzxon" tragediyasining tahlili. Ijtimoiy-publisistik asarlari: “Munozara”, “Hind sayyohi”, “Sharq siyosati”.

**Hamza** adabiy merosi. Adabiy merosining yangicha talqini. “Devoni Nihoniy”da an'ana va yangilanish. Hamza she'rlarida milliy uyg‘onish g‘oyasi. Hamza nasri va jadidchilik. “Yangi saodat” mlliy romani. Dramalari.

**Abdulla Qodiriy romanlari.** Yozuvchining ilk asarlari. "O‘tgan kunlar"-birinchi o‘zbek romani. "Mehrobdan chayon" romanining tahlili.

**Cho‘lpon lirikasi.** Adib biografisi va ilk hikoyalari. Cho‘lponning XX asr 20-yillar she'riyati. Uning 30-yillar lirikasida murosasozlik ohanglari.

**Yangi o‘zbek adabiyotining asosiy xususiyatlari.** Yangi o‘zbek adabiyoti taraqqiyotining asosiy bosqichlari. Adabiyot tarixini davrlashtirish tamoyillari.

**Milliy istiqlol va adabiyot.** Yangi ijodiy izlanishlar. Realistik tamoyillarning ustuvorligi. Modernistik adabiyot yaratish yo‘lidagi izlanishlar.

**Oybek romanlari**. Yozuvchining hayot yo‘li. "Qutlug‘ qon" romanida milliy ozodlik harakatining aks ettirilish. "Navoiy" romanining o‘zbek adabiyoti taraqqiyotidagi o‘rni.

**G‘afur G‘ulom** she'riyati. Shoir biografiyasi va ijodining ilk bosqichi. Shoirning urush davri she'riyatiga xos asosiy xususiyatlar. "Sharqdan kelayotirman" to‘plamidagi she'rlar tahlili.

**Abdulla Qahhor**ning hikoyanavislik mahorati. Hayot yo‘li va ijodi bosqichlari. Adib hikoyalarida realizm an'analari. "O‘g‘ri", "Dahshat", "Mayiz emagan xotin" hikoyalarining tahlili. Abdulla Qahhor romanlari.

**Said Ahmad nasri.** Said Ahmad hikoyalari. Yozuvchi qissalari. Said Ahmadning "Ufq" trilogiyasi va "Jimjitlik" romani tahlili.

**Odil Yoqubov** romanlari. Yozuvchi biografiyasi va ijodining ilk bosqichi. Odil Yoqubov o‘zbek adabiyotida tarixiy-polifonik romanning asoschisi ekanligi. "Ulug‘bek xazinasi", "Ko‘hna dunyo", "Diyonat" romanlari tahlili.

**Pirimqul Qodirov** nasri. Yozuvchining hayot yo‘li va dastlabki asarlari. Adibning zamonaviy mavzudagi qissa va romanlari. Pirimqul Qodirovning tarixiy romanlari.

**Erkin Vohidov** poeziyasi. Shoir biografiyasi va lirikasi. Erkin Vohidov dostonlari. "Ruhlar isyoni" dostoni tahlili. “Istanbul fojiasi” dostoni badiiyati. Erkin Vohidov – tarjimon.

**Abdulla Oripov** ijodining o‘rganilishi. Abdulla Oripov lirikasining asosiy xususiyatlari. Shoir she'riyatida milliy ozodlik mavzusi. “Haj daftari”, “Hikmat sadolari” turkumlarida diniy-ma'rifiy mavzu talqini. Abdulla Oripov sayohatnomalari badiiyati. "Jannatga yo‘l", "Hakim va ajal", "Istiqlol manzaralari" dostonlari tahlili.

**O'tkir Hoshimov.** Adibning hayot yo'li, daslabki hikoya va qissalari. "Bahor qaytmaydi", "Dunyoning ishlari" qissalari. "Nur borki, soya bor", "Ikki eshik orasi", "Tushda kechgan umrlar" romanlari tahlili.

**Shukur Xolmirzaev** nasri. Yozuvchining tarjimai holi va ijodining ilk bosqichi. Sh.Xolmirzaev hikoyalarining o'ziga xosligi. Adibning qissa va romanlari.

**Rauf Parfi ijodi.** Shoir biografiyasi va ilk ijodi. Rauf Parfi lirikasining asosiy xususiyatlari. "Sabr daraxti", "Tavba" to'plamlariga kirgan she'rlar tahlili.

**АДАБИЁТЛАР:**


1. Абдуллаев Ҳ. "Қутадғу билиг"да фольклоризмлар. – Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2005.
2. Абдураҳмонов А. Туркий адабиётнинг қадимги даври. – Тошкент, 2006.
3. Адизова И. Сўзумни ўқуб англағайсен ўзумни... – Тошкент, 2008.
4. Адизова И. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2006.
5. Аҳмад Саид. Сайланма. Уч томлик. – Тошкент: Ғафур Ғулом,1980-1983. Жимжитлик. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1989.
6. Азимов У. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 1995.
7. Болтабоев Ҳ. Мумтоз сўз қадри. – Тошкент: Адолат, 2004.
8. Воҳидов Э. Изтироб. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992.
9. Воҳидов Э. Яхшидур аччиқ ҳақиқат. – Тошкент: Нур, 1992.
10. Воҳидов Э. Сайланма. Икки томлик. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1986.
11. Воҳидов Р., Эгонқулов Ҳ. Ўзбек мумтоз адабиёт тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси адабиёт жамғармаси нашриёти, 2006.
12. Ёқубов О. Сайланма. Уч томлик. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1985-1987.
13. Ёқубов О. Диёнат. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1979.
14. Жабборов Н. Замон, мезон, шеърият. Тошкент: Ғафур Ғулом, 2015
15. Жабборов Н. Адабиёт ва миллий маънавият. Т.: "Маънавият", 2015
16. Зулфия. Асарлар. Уч жилдлик. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1983-1986.
17. Каримов Н., Мамажонов С., Назаров У., Шарафиддинов О. ХХ аср ўзбек адабиёти тарихи. Аолий ўқув юртлари учун дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1999.
18. Маматқулов М. Қадимги туркий адабиётдаги жанрлар поэтикаси. – Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2004.
19. Миртемир. Асарлар. Тўрт жилдлик. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1980-1983.
20. Мухтор А. Асарлар. Тўрт томлик. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1980-1982.

21. Мурод Тоғай. От кишнаган оқшом. Қиссалар. – Тошкент: Шарқ, 1994.
22. Мурод Тоғай. Отамдан қолган далалар. Роман. – Тошкент: Шарқ, 1994.
23. Мурод Тоғай. Бу дунёда ўлиб бўлмайди. Роман. – Тошкент: Шарқ, 2001.
24. Орзибеков Р. Ўзбек адабиёти тарихи. Ўқув қўлланма. – Самарқанд, 2005.
25. Ойбек. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. – Тошкент: Фан, 1990-1995.
26. Олимжон Ҳ. Мукаммал асарлар тўплами. Беш жилдлик. – Тошкент: Фан, 1975-1994.
27. Орипов. А. Тўлиқ асарлар тўплами. Тўрт жилдлик. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2001.
28. Парфи Р. Сабр дарахти. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1986.
29. Раҳмон Ш. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 1997.
30. Раҳмонов Н. Руҳиятдаги нур муроди. – Тошкент, 2002.
31. Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий: манбаларнинг қиёсий-типологик ва текстологик тадқиқи. Т.: Академнашр, 2011.
32. Содиқ С. ХХ-ХХ1 асрлар ўзбек адабиёти тарихи. Дарслик. – Тошкент: Университет, 2005.
33. Фитрат. Чин севиш. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1997.
34. Фитрат. Танланган асарлар. 2-жилд. – Тошкент: Маънавият, 2000.
35. Холмирзаев Ш. Уч жилдлик. – Тошкент: Шарқ, 2003.
36. Чўлпон. Асарлар. Уч жилдлик. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1994-1995.
37. Шайхзода М. Асарлар. 6 томлик. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1969-1974.
38. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари. (1-2 жилд). – Тошкент: Фан, 2003, 2005.
39. Қодирий А. Ўткан кунлар. Меҳробдан чаён. Романлар. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1992.
40. Қодирий А. Обид кетмон. – Тошкент: Ўзадабийнашр, 1960.
41. Қодирий А. Кичик асарлар. – Тошкент: Ўзадабийнашр, 1969.
42. Қаҳҳор А. Асарлар. Беш жилдлик. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1987-1989.
43. Қодиров П. Сайланма. Уч жилдлик. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1987-1988.
44. Ғулом Ғафур. Асарлар. 12 томлик. – Тошкент: Фан, 1970-1978.
45. Ҳошимов Ў. Сайланма. Икки жилдлик. – Тошкент: Шарқ, 1993.
46. Ҳошимова Д. “Бобурнома”нинг илмий-танқидий матнини яратиш муаммолари. – Тошкент: 2007.
47. www.literature.uz

48. Каримов Н., Мамажонов С., Назаров Б., Норматов У., Шарафиддинов О. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. Олий ўқув юртлари учун дарслик. Т., "Ўқитувчи" нашриёти. 1999.

49. Санжар Содиқ. XX-XX1 асрлар ўзбек адабиёти тарихи. Дарслик. Т., "Университет", 2005.

50. Фитрат. Чин севиш. Т., Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1997.

51. Абдулла Қодирий асарлари: Ўтган кунлар, Меҳробдан чаён. Романлар. Т, Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1992.

52. Абдулла Қодирий. Кичик асарлар. Т., Ўзадабийнашр, 1969.

53. Чўлпон. Асарлар. Уч жилдлик. Т., Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1994-1995.

54. Ойбек. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. Т., "Фан", 1990-1995.

55. Ғафур Ғулом. Асарлар. 12 томлик. Т., "Фан", 1970-1978.

56. Абдулла Қаҳҳор. Асарлар. Беш жилдлик. Т., Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1987-1989.

57. Ҳамид Олимжон. Мукаммал асарлар тўплами. Беш жилдлик. Т., "Фан", 1975-1994.

58. Мақсуд Шайхзода. Асарлар. 6 томлик. Т., Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1969-1974.

59. Миртемир. Асарлар. Тўрт жилдлик. Т., Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1980-1983.

60. Зулфия. Асарлар. Уч жилдлик. Т., Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1983-1986.

61. Асқад Мухтор. Асарлар. Тўрт томлик. Т., Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1980-1983.

62. Саид Аҳмад асарлари:

63. Сайланма. Уч томлик. Т., Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1980-1981.

64. Жимжитлик. Т., Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1989.

65. Одил Ёқубов асарлари:

66. Сайланма. Уч томлик. Т., Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1985-1987.

67. Диёнат. Т., Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1979.

68. Пиримқул Қодиров асарлари: Сайланма. Уч жилдлик. Т., Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1987-1988. Авлодлар довони. Т., Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1989.

69. Эркин Воҳидов асарлари: Сайланма. Икки томлик. Т., Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1986. Изтироб. Т., "Ўзбекистон", 1992. Яхшидур аччиқ ҳақиқат. Т., "Нур", 1992.

70. Абдулла Орипов. Танланган асарлар тўплами. Саккиз жилдлик. Т., Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 2001-2016.

71. Ўткир Ҳошимов. Сайланма. Икки жилдлик. Т., "Шарқ", 1993.

72. Шукур Холмирзаев. Уч жилдлик. Т., "Шарқ", 2003.

73. Рауф Парфи. Сабр дарахти. Т., Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1986.

74. Тоғай мурод асарлари: От кишнаган оқшом. Қиссалар. Т., "Шарқ", 1994. Отамдан қолган далалар. Роман. Т., "Шарқ", 1994. Бу дунёда ўлиб бўлмайди. Роман. Т., "Шарқ", 2001.

75. Шавкат Раҳмон. Сайланма. Т., "Шарқ", 1997.

76. Усмон Азимов. Сайланма. Т., "Шарқ", 1995.

**Fakultet dekani** **R.A.Ikramov**

**Kafedra mudiri** **N.D.Xolikova**